

TURKIYADA O‘ZBEK DIASPORASINING SHAKLLANISHI: NAZARIY VA METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Bekjanova Feruza Foziljanovna

Istanbul Kultur Universiteti talabasi

Email: feruzabekjanova23@gmail.com

Istanbul, Turkiya

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Turkiyada shakllangan o‘zbek diasporasini o‘rganishning nazariy konseptual va metodologik asoslarini kompleks hamda interaktiv yondashuv asosida tahlil qiladi. Tadqiqot diaspora fenomenini klassik va zamonaviy ilmiy paradigmalar kesimida qayta talqin etib, transmilliylik, akkulturatsiya, ijtimoiy integratsiya, ijtimoiy kapital va identitet transformatsiyasi kabi fundamental tushunchalarni yagona analitik model doirasida sintez qiladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, diaspora tadqiqotlari global miqyosida sezilarli darajada rivojlangan bo‘lsada, Turkiya kontekstida o‘zbek diasporasi, empirik asoslangan, multi-darajali va metodologik jihatdan integratsiyalashgan yondoshuv asosida yetarlicha o‘rganilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot mixed-methods dizayniga tayangan holda diaspora shakllanishining konseptual-metodologik modelini ishlab chiqadi. Taklif etilgan model diaspora jarayonlarini makro (strukturaviy omillar), mezo(ijtimoiy tarmoqlar) va mikro (individual daraja) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq dinamik tizim sifatida tushuntiradi. Tadqiqot natijalari diaspora integratsiya darajasi transmilliy aloqalar intensivligi, ijtimoiy kapital sifati va instatsional muhit bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: diaspora, transmilliylik, akkulturatsiya, identitet, ijtimoiy integratsiya, ijtimoiy kapital, migratsiya, mixed-methods.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются теоретические, концептуальные и методологические основы изучения узбекской диаспоры в Турции на основе комплексного и интерактивного подхода. Исследование переосмысливает феномен диаспоры в контексте классических и современных научных парадигм, синтезируя такие ключевые понятия, как транснационализм, аккультурация, социальная интеграция, социальный капитал и трансформация идентичности в рамках единой аналитической модели. Анализ литературы показывает, что несмотря на значительное развитие исследований диаспоры на глобальном уровне, узбекская диаспора в Турции недостаточно изучена с

точки зрения эмпирически обоснованного, многоуровневого подхода. В связи с этим в работе предлагается концептуально-методологическая модель формирования диаспоры, основанная на *mixed-methods* дизайне. Предложенная модель рассматривает диаспоральные процессы как взаимосвязанную динамическую систему макро-(структурные факторы), мезо-(социальные сети) и микроуровней (индивидуальный уровень).

Результаты исследования показывают, что уровень интеграции диаспоры напрямую связан с интенсивностью транснациональных связей, качеством социального капитала и институциональной средой.

Ключевые слова: диаспора, миграция, транснационализм, узбекская диаспора, Турция

ABSTRACT

This article analyzes the theoretical, conceptual, and methodological foundations of studying the Uzbek diaspora in Turkey through a comprehensive and integrative approach. The study reinterprets the phenomenon of diaspora within both classical and contemporary scientific paradigms, synthesizing key concepts such as transnationalism, acculturation, social integration, social capital, and identity transformation within a unified analytical framework. The literature review indicates that although diaspora studies have significantly developed globally, the Uzbek diaspora in Turkey remains insufficiently explored through empirically grounded, multi-level, and methodologically integrated approaches. Therefore, this study proposes a conceptual and methodological model of diaspora formation based on a mixed-methods design.

The proposed model conceptualizes diaspora processes as a dynamic system of interrelated macro (structural factors), mezo (social networks), and micro (individual level) dimensions. The findings demonstrate that the level of diaspora integration is directly associated with the intensity of transnational ties, the quality of social capital, and the institutional environment.

Keywords: *Diaspora, Transnationalism, Migration, Uzbek Diaspora, Turkey Social Capital, Hybrid, Identity Acculturation.*

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda global migratsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida diaspora fenomeni zamonaviy ijtimoiy fanlarning markaziy tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Migratsiya oqimlarining intensivlashuvi, kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi hamda globallashuv jarayonlari diaspora tushunchasining mazmunan kengayishiga olib keldi. Natijada diaspora endilikda

faqat geografik dispersiya sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy, madaniy va identifikatsion transformatsiyalar tizimi sifatida talqin etilmoqda.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlar diaspora tushunchasini statik etnik birlik sifatida emas, balki transmilliy ijtimoiy makon sifatida ko'rib chiqadi. Ushbu makonda migrantlar bir vaqtning o'zida bir nechta ijtimoiy tizimlar bilan aloqada bo'lib, gibril identitet shakllantiradi. Bu jarayonlar ijtimoiy kapitalning shakllanishi, transmilliy aloqalarning rivojlanishi va akkulturatsiya strategiyalarining tanlanishi bilan bevosita bog'liqdir.

Turkiya geografik joylashuvi, iqtisodiy imkoniyatlari va tarixiy-madaniy yaqinligi sababli Markaziy Osiyo migrantlari uchun muhim qabul qiluvchi hududlardan biri hisoblanadi. Xususan, o'zbek diasporasining shakllanishi ushbu kontekstda alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlar Turkiyadagi o'zbek diasporasini asosan tavsifiy darajada yoritib, uning nazariy va metodologik jihatlarini yetarli darajada ochib bermagan. Shu bois, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi diaspora fenomenini integrativ yondashuv asosida qayta talqin qilish hamda Turkiyadagi o'zbek diasporasining shakllanish jarayonlarini ko'p darajali konseptual model asosida tahlil qilishdan iborat. Turkiya geografik joylashuvi iqtisodiy imkoniyatlari va tarixiy-madaniy yaqinligi sababli Markaziy Osiyo migrantlari uchun muhim qabul qiluvchi hududlardan biri hisoblanadi.

Xususan, o'zbek diasporasining shakllanishi ushbu kontekstda alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Diaspora tushunchasi dastlab tarixiy vatan bilan bog'liqlik, kollektiv xotira va etnik identitet asosida izohlangan (Cohen, 1997). Klassik yondashuvlarda diaspora ko'proq majburiy migratsiya va tarixiy travma kontekstida talqin etilgan.

Zamonaviy ilmiy paradigmalarda esa diaspora fenomenini transmilliylik nazariyasi asosida kengroq talqin qiladi. Transmilliylik migrantlarning bir vaqtning o'zida bir nechta ijtimoiy makonlarda faoliyat yuritishini anglatadi (Glick Schiller va boshq., 1995). Bu yondashuv diaspora subyektlarini global ijtimoiy tarmoqlarning faol ishtirokchilari sifatida ko'rsatadi.

Akkulturatsiya nazariyasi migrantlarning mezbon jamiyatga moslashuv strategiyalarini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Berry (1997) to'rt asosiy strategiyani ajratadi: integratsiya, assimilyatsiya, separatsiya va marginalizatsiya. Ularning ichida integratsiya strategiyasi eng barqaror model sifatida e'tirof etiladi.

Shu bilan birga, segmentatsiyalangan integratsiya nazariyasi migrantlarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga qarab turlicha rivojlanishini ko'rsatadi (Portes, 2001). Bu yondashuv diaspora ichidagi differensial rivojlanish yo'llarini tushuntirish

imkonini beradi. Shunga qaramay, mavjud adabiyotlarda transmilliylik va akkulturratsiya jarayonlari ko'pincha alohida o'rganilib, ularning o'zaro integratsiyasi yetarli darajada tahlil qilinmagan. Ayniqsa, Turkiya kontekstida o'zbek diasporasiga oid empirik va metodologik jihatdan chuqur tadqiqotlar yetishmaydi.

Mazkur tadqiqot mixed-methods yondashuviga asoslanadi. Ushbu yondashuv sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) metodlarni birlashtirish orqali diaspora jarayonlarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Sifat tahlili doirasida Istanbul va Izmir shaharlarida yashovchi o'zbek diasporasi vakillari bilan yarim strukturaviy intervyular o'tkazildi. Intervyular respondentlarning migratsiya tajribasi, ijtimoiy moslashuvi, identitet transformatsiyasi va transmilliy aloqalari haqida chuqur ma'lumot olishga qaratildi.

Respondentlar purposive va snowball sampling usullari asosida tanlab olindi. Ushbu yondashuv yopiq yoki yarim yopiq ijtimoiy guruhlarni o'rganishda samarali hisoblanadi.

Miqdoriy tahlil esa so'rovnomasida amalga oshirilib, unda 50 nafardan ortiq diaspora vakillari ishtirok etdi. So'rovnomasida orqali ularning integratsiya darajasi, ijtimoiy kapitali va iqtisodiy faoliyati o'rganildi.

Ma'lumotlarni tahlil qilishda metodologik triangulyatsiya qo'llanilib, turli manbalardan olingan ma'lumotlar o'zaro solishtirildi. Bu esa natijalarning ishonchliligi va validligini oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Turkiyadagi o'zbek diasporasi vakillarining aksariyati integratsiya strategiyasini tanlaydi. Bu strategiya migrantlarga mezbon jamiyatga moslashish bilan bir qatorda o'z milliy va madaniy identitetini saqlab qolish imkonini beradi.

Transmilliy aloqalar diaspora hayotida muhim rol o'ynaydi. Respondentlarning aksariyati o'z vatanlari bilan muntazam aloqada bo'lib, iqtisodiy (pul o'tkazmalari), ijtimoiy (aloqalar) va madaniy (an'analar) bog'liqlikni saqlab qoladi.

Hududiy tahlil natijalari Istanbul va Izmir o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Istanbulda iqtisodiy imkoniyatlar kengligi va rivojlangan ijtimoiy tarmoqlar sababli integratsiya darajasi yuqori bo'lsa, Izmirda bu ko'rsatkich nisbatan pastroq.

Shuningdek, ijtimoiy kapital darajasi yuqori bo'lgan migrantlarning iqtisodiy va ijtimoiy integratsiyasi tezroq kechishi aniqlandi. Olingan natijalar diaspora tadqiqotlaridagi asosiy nazariy yondashuvlarni tasdiqlaydi. Xususan, transmilliylik va akkulturratsiya jarayonlari o'zaro bog'liq holda kechishi aniqlanib, ularning integratsiya jarayoniga kompleks ta'sir ko'rsatishi kuzatildi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy kapital va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanganligi migrantlarning muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlovchi asosiy

omillardan biridir. Shu bilan birga, institutsional muhit, jumladan migratsiya siyosati va iqtisodiy imkoniyatlar ham muhim rol o'ynaydi.

Bu esa diaspora jarayonlarini faqat mikro darajada emas, balki makro va mezo darajalarda ham tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Diaspora tushunchasi dastlab tarixiy vatan bilan bog'liqlik, kollektiv xotira va etnik identitet asosida izohlangan (Cohen, 1997). Klassik yondashuvlarda diaspora ko'proq majburiy migratsiya va tarixiy travma kontekstida talqin etilgan.

Zamonaviy ilmiy paradigmalarda esa diaspora fenomenini transmilliylik nazariyasi asosida kengroq talqin qiladi. Transmilliylik migrantlarning bir vaqtning o'zida bir nechta ijtimoiy makonlarda faoliyat yuritishini anglatadi (Glick Schiller va boshq., 1995). Bu yondashuv diaspora subyektlarini global ijtimoiy tarmoqlarning faol ishtirokchilari sifatida ko'rsatadi.

Akkulturatsiya nazariyasi migrantlarning mezbon jamiyatga moslashuv strategiyalarini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Berry (1997) to'rt asosiy strategiyani ajratadi: integratsiya, assimilyatsiya, separatsiya va marginalizatsiya. Ularning ichida integratsiya strategiyasi eng barqaror model sifatida e'tirof etiladi.

Shu bilan birga, segmentatsiyalangan integratsiya nazariyasi migrantlarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga qarab turlicha rivojlanishini ko'rsatadi (Portes, 2001). Bu yondashuv diaspora ichidagi differensial rivojlanish yo'llarini tushuntirish imkonini beradi.

Shunga qaramay, mavjud adabiyotlarda transmilliylik va akkulturatsiya jarayonlari ko'pincha alohida o'rganilib, ularning o'zaro integratsiyasi yetarli darajada tahlil qilinmagan. Ayniqsa, Turkiya kontekstida o'zbek diasporasiga oid empirik va metodologik jihatdan chuqur tadqiqotlar yetishmaydi.

Mazkur tadqiqot mixed-methods yondashuviga asoslanadi. Ushbu yondashuv sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) metodlarni birlashtirish orqali diaspora jarayonlarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Sifat tahlili doirasida Istanbul va Izmir shaharlarida yashovchi o'zbek diasporasi vakillari bilan yarim strukturaviy intervyular o'tkazildi. Intervyular respondentlarning migratsiya tajribasi, ijtimoiy moslashuvi, identitet transformatsiyasi va transmilliy aloqalari haqida chuqur ma'lumot olishga qaratildi.

Respondentlar purposive va snowball sampling usullari asosida tanlab olindi. Ushbu yondashuv yopiq yoki yarim yopiq ijtimoiy guruhlarini o'rganishda samarali hisoblanadi.

Miqdoriy tahlil esa so'rovnoma asosida amalga oshirilib, unda 50 nafardan ortiq diaspora vakillari ishtirok etdi. So'rovnoma orqali ularning integratsiya darajasi, ijtimoiy kapitali va iqtisodiy faoliyati o'rganildi.

Ma'lumotlarni tahlil qilishda metodologik triangulyatsiya qo'llanilib, turli manbalardan olingan ma'lumotlar o'zaro solishtirildi. Bu esa natijalarning ishonchliligi va validligini oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Turkiyadagi o'zbek diasporasi vakillarining aksariyati integratsiya strategiyasini tanlaydi. Bu strategiya migrantlarga mezbon jamiyatga moslashish bilan bir qatorda o'z milliy va madaniy identitetini saqlab qolish imkonini beradi.

Transmilliy aloqalar diaspora hayotida muhim rol o'ynaydi. Respondentlarning aksariyati o'z vatanlari bilan muntazam aloqada bo'lib, iqtisodiy (pul o'tkazmalari), ijtimoiy (aloqalar) va madaniy (an'analar) bog'liqlikni saqlab qoladi.

Hududiy tahlil natijalari Istanbul va Izmir o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Istanbulda iqtisodiy imkoniyatlar kengligi va rivojlangan ijtimoiy tarmoqlar sababli integratsiya darajasi yuqori bo'lsa, Izmirda bu ko'rsatkich nisbatan pastroq.

Shuningdek, ijtimoiy kapital darajasi yuqori bo'lgan migrantlarning iqtisodiy va ijtimoiy integratsiyasi tezroq kechishi aniqlandi. Olingan natijalar diaspora tadqiqotlaridagi asosiy nazariy yondashuvlarni tasdiqlaydi. Xususan, transmilliylik va akkulturatsiya jarayonlari o'zaro bog'liq holda kechishi aniqlanib, ularning integratsiya jarayoniga kompleks ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy kapital va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanganligi migrantlarning muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Shu bilan birga, institutsional muhit, jumladan migratsiya siyosati va iqtisodiy imkoniyatlar ham muhim rol o'ynaydi. Bu esa diaspora jarayonlarini faqat mikro darajada emas, balki makro va mezo darajalarda ham tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Turkiyadagi o'zbek diasporasi so'nggi yillarda sezilarli darajada shakllanib, ayniqsa yirik shaharlarda yuqori darajada konsentratsiyalashgan. Istanbul shahri o'zbek migrantlari uchun asosiy markaz bo'lib, bu yerda ular asosan savdo, xizmat ko'rsatish va kichik biznes sohalarida faoliyat yuritadi. Iqtisodiy imkoniyatlarning kengligi va rivojlangan ijtimoiy tarmoqlar mavjudligi Istanbuldagi o'zbek diasporasining tezroq integratsiyalashuviga zamin yaratadi.

Izmir shahrida esa o'zbek diasporasi nisbatan kichik bo'lib, ijtimoiy tarmoqlar va iqtisodiy resurslar cheklanganligi sababli integratsiya jarayoni sekinroq kechadi. Bu hududiy farqlar diaspora shakllanishining makro va mezo darajadagi omillar bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Turkiyadagi o'zbek diasporasi vakillari o'z vatanlari bilan faol transmilliy aloqalarni saqlab qolmoqda. Pul o'tkazmalari, ijtimoiy aloqalar va madaniy an'analar orqali ular ikki jamiyat o'rtasida ko'priklar vazifasini bajaradi. Bu esa diaspora identitetining gibridda rivojlanishiga olib keladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy kapital darajasi yuqori bo'lgan migrantlar integratsiya jarayonida ko'proq muvaffaqiyatga erishadi. Shu bois, diaspora ichidagi ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish integratsiyaning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi va nazariy asoslar Diaspora tadqiqotlari bir nechta nazariy paradigmalar asosida shakllangan bo'lib, ularning har biri fenomenning turli jihatlarini yoritadi. Ushbu paradigmalar o'zaro raqobatchi emas, balki komplementar harakterga ega bo'lib, kompleks tahlil uchun muhim metoedologik asos yaratadi. Klassik yondashuv diaspora tushunchasini tarixiy xotira, kollektiv identitet va vatanga ramziy bog'liqlik bilan izohlaydi. Bu yondashuv diaspora identitetining barqarorligini tushuntirishda muhim bo'lsa-da, zamonaviy migratsiya jarayonlarining dinamik xususiyatlarini to'liq qamrab olmaydi. Shu sababli zamonaviy yondashuvlar xususan transmilliylik nazariyasi diaspora fenomenini kengroq ijtimoiy kontekstda talqin qiladi. Ushbu yondashuv migrantlarning bir vaqtning o'zida bir nechta ijtimoiy maydonlarda faoliyat yuritishini va transmilliy aloqalar orqali yangi ijtimoiy makonlar shakllanishini ta'kidlaydi. Akkulturations nazariyasi esa migrantlarning mezbon jamiyatga moslashuv strategiyalarini tushuntirishga qaratilgan bo'lib, integratsiya eng barqaror model sifatida ajralib turadi. Shu bilan birga, segmentatsiyalangan integratsiya yondashuvi migrantlar tajribasining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liqligini ko'rsatib, diaspora ichidagi differensial rivojlanish yo'llarini ochib beradi. Natijada, zamonaviy diaspora tadqiqotlari bir darajali yondashuvdan ko'ra, ko'p ko'p darajali va integrativ metodologiyani talab qiladi. Yuqoridagi nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud adabiyotlar quyidagi muhim bo'shliqlarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan, Turkiyadagi o'zbek diasporasi hali to'liq shakllangan emperik tadqiqot ob'ekti sifatida tizimli o'rganilmagan.

Ikkinchidan, diaspora fenomeni multi-darajali integrativ model asosida tahlil qilinmagan, bu esa uning kompleks tabiatini tushunishni cheklaydi.

Uchinchidan, transmilliylik va akkulturations jarayonlari ko'pincha alohida o'rganilib ularning o'zaro bog'liqligi yetarli darajada ochib berilmagan.

To'rtinchidan hududiy differensial tahlillar, xususan Istanbul va Izmir kesimida solishtirma tadqiqotlar yetishmaydi.

Mazkur bo'shliqlar ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini va dolzarbligini asoslaydi. Tadqiqot diaspora shakllanishining strukturaviy asoslarini belgilaydi. Mezo darajada ijtimoiy tarmoqlar va ijtimoiy kapital migrantlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlab, resurslar almashinuvini ta'minlaydi.

Mikro darajada esa individual identitet, akkulturatsiya strategiyalari va moslashuv jarayonlari diaspora tajribasining subyektiv o'lchamini shakllantiradi. Ushbu darajalar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, diaspora rivojlanishini dinamik va ko'p o'lchovli jarayon sifatida namoyon etadi. Tadqiqot metodologik jihatdan mixed-methods yondashuvga asoslanadi, bu esa sifat va miqdoriy metodlarning afzalliklarini birlashtirish imkonini beradi. Sifat tahlili intervyular orqali diaspora tajribasining chuqur interpretatsiyasini ta'minlaydi. Miqdoriy tahlil esa statistic usullar orqali umumlashgan xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda metodologik triangulyatsiya qo'llanilib natijalarning ishonchligi va validligi ta'minlanadi. Tadqiqot natijalari diaspora vakillarining asosiy qismi integratsiya strategiyasini tanlashini ko'rsatadi. Bu esa ularning ularning mezbon jamiyatga moslashuvi bilan bir qatorda, o'z madaniy identitetini saqlashga intilishini ham aks ettiradi. Transmilliy aloqalar diaspora identitetini saqlashga intilishini ham aks ettiradi. Transmilliy aloqalar diaspora identitetining barqarorligini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, hududiy farqlar hamaniqlanib, Istanbulda integratsiya darajasi Izmirga nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatiladi. Ushbu natijalar zamonaviy diaspora nazariyalarini empirik jihatdan tasdiqlab, ayniqsa akkulturatsiya va transmilliylik yondashuvlarining o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot global migratsiya sharoitida diaspora fenomenini interaktiv nazariy va metodologik yondashuvlar asosida qayta talqin qildi. Olingan natijalar diaspora shakllanishi ko'p omilli va dinamik jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Taklif etilgan konseptual model doirasida transmilliy aloqalar, ijtimoiy (va iqtisodiy kapital hamda institutsional muhit diaspora integratsiyasining asosiy determinantlari sifatida asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari Turkiyadagi o'zbek diasporasining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda mavjud nazariy yondashuvlarni boyitadi. Shu bilan birga, kelgusida empirik tadqiqotlarni kengaytirish, xususan, transmilliy tarmoqlar, til amaliyoti va ijtimoiy integratsiya jarayonlarini dala(field) ma'lumotlari asosida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa taklif etilgan modelning amaliy qo'llanishini yanada mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES).

1. Bourdieu, P. (1986). The forms of capital. In J.G. Richardson (Ed), Handbook of theory and research for the sociology of education (pp.241-258). Greenwood.
2. Brah, A. (1996). Cartographies of diaspora: Contesting identities.

3. Clifford, J. (1994). Diasporas. *Cultural Anthropology*, 9(3), 302-338.
4. Cohen, R. (2008). *Global diasporas: An introduction* (2nd ed)
5. Faist, T. (2010). *Diaspora and transnationalism: Concepts, theories and methods*. Amsterdam University Press.
6. Ilkhamov, A. (2013). Labour migration and social networks in Uzbekistan. *Central Asian Survey*, 32(4), 469-488.
7. KIRISCI, K. (2007). *Turkey: A transformation from emigration to immigration*. Migration Policy Institute.